

MUSIQA FANINING UMUMTA'LIMDA TUTGAN O'RNI

Vahobova Mubina Shuhratbek qizi*Andijon Davlat Pedagogika Instituti**Musiqa ta'limi va san'at yo'nalishi I-bosqich magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada musiqa fanining umumta'lim maktablaridagi o'rni, uning yosh avlod ma'naviy-axloqiy dunyoqarashini shakllantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Tadqiqotda musiqiy ta'limning o'quvchilar intellektual salohiyatini oshirish, estetik didini yuksaltirish va milliy o'zlikni anglash tuyg'usini kuchaytirishdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, musiqa darslarini zamonaviy innovatsion texnologiyalar va milliy qadriyatlar uyg'unligida tashkil etishning samarali yo'llari bo'yicha metodik tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *musiqa ta'limi, madaniyat, kompetensiyaviy yondashuv, estetik ong, aksiologik tarbiya, kreativ fikrlash, pedagogik integratsiya.*

Abstract: *This article discusses the role of music in secondary schools, its importance in forming the spiritual and moral outlook of the younger generation. The study analyzes the pedagogical potential of music education in increasing the intellectual potential of students, enhancing their aesthetic taste, and strengthening their sense of national identity. Methodological recommendations are also given on effective ways to organize music lessons in harmony with modern innovative technologies and national values.*

Keywords: *music education, culture, competency-based approach, aesthetic consciousness, axiological education, creative thinking, pedagogical integration.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль музыки в средних школах, ее важность в формировании духовно-нравственного мировоззрения молодого поколения. Анализируется педагогический потенциал музыкального образования в повышении интеллектуального потенциала учащихся, развитии их эстетического вкуса и укреплении чувства национальной идентичности. Также даны методические рекомендации по эффективным способам организации уроков музыки в соответствии с современными инновационными технологиями и национальными ценностями.*

Ключевые слова: *музыкальное образование, культура, компетентностный подход, эстетическое сознание, аксиологическое образование, творческое мышление, педагогическая интеграция.*

KIRISH

Musiqaning umumta’lim maktablarida o’quvchilarning nafaqat badiiy-estetik didini, balki ularning intellektual va ma’naviy qiyofasini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu fan yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda muhim strategik ahamiyatga ega. Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida o’quvchilarning nafaqat intellektual salohiyati, balki ularning ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish ham ustuvor vazifa hisoblanadi. Bu borada musiqa madaniyati fani o’ziga xos o’rin tutadi. Musiqa — inson ruhiga bevosita ta’sir ko’rsatuvchi, uning emotsional olamini boyituvchi qudratli vositadir. Musiqa – inson tafakkuri va hissiy dunyosining sintezlashgan ifodasi bo’lib, u mantiqiy va obrazli fikrlash jarayonlarini bir vaqtning o’zida faollashtiradi. Shu bois musiqa fanini faqat estetik predmet sifatida emas, balki ko’p funksiyali pedagogik vosita sifatida talqin etish zarur.

Musiqa fanining bosh maqsadi — o’quvchilarda yuksak badiiy-estetik didni shakllantirishdir. Dars jarayonida mumtoz kuylar, xalq qo’shiqlari va jahon musiqasi durdonalarini tinglash orqali bolalarda go’zallikka his qilish qobiliyati rivojlanadi. Bu esa ularning atrof-muhitga, jamiyatga va san’atga bo’lgan munosabatini ijobiy tomonga o’zgartiradi. San’atga oshno qalbdan esa yomonlik aslo chiqmaydi. Musiqa darsi o’ziga xos faoliyat turlari bilan: musiqa asarini tinglash va tahlil qilish, qo’shiq kuylash, musiqa ostida harakatlar bajarish, musiqa ijodkorligi bilan ajralib turadi. Dars jarayonida bu faoliyat turlarini bir-biridan ajratish mumkin emas, chunki ular bir-biri bilan o’zaro bog’langan va ba’zan bir-biriga singib ketgan bo’ladi. Musiqani tinglash jarayonida o’quvchilar muayyan miqdorda musiqaviy-nazariy bilimlar oladilar, musiqa tinglash qobiliyati tajribasini to’playdilar, ularda ayni vaqtning o’zida taxlil qilish malakalari shakllanadi. Jamoa bo’lib qo’shiq aytishda qo’shiqchilik ovozi hamda musiqa tinglash qobiliyatining barcha komponentlari (yuqori tovush, ritmika, tovushlar uyg’unligi, tembr) rivojlanadi. Xor bo’lib qo’shiq aytish, bolalar musiqa asboblarini chalish, musiqa ostida harakat qilish improvizatsiya (erkin ijod etish) jarayonida ijrochilik malakalarining rivojlanishi o’quvchilarni o’quv mashg’ulotining faol, manfaatdor, emotsional qatnashchilariga aylantirib qo’yadi.

Musiqa fanining vazifasi-bolalarni go’zallikka faol munosabatda bo’lishga, musiqaga ijodiy yondoshishga o’rgatishdan iboratdir. Bunga biron-bir asarni o’zlashtirib va tushunib olish asosidagina emas, balki uning yaratilish tarixini, musiqa nazariyasining asoslarini, uning rivojlanish qonuniyatlarini bilish asosida erishish mumkin. Darsda o’quvchi faoliyatining barcha turlariga musiqani idrok qilish asos bo’ladi. Musiqani tushinish atrofda hayotni to’la to’kis idrok qilish uchun zarurdir, chunki pirovardida san’at asari va hayotdagi estetik narsaning mohiyatiga chuqur kirib borish qobiliyati maktab o’quvchisi

shaxsining har tomonlama rivojlanishiga yordam beradi. Musiqa madaniyati darslari pedagogikaning didaktik nazariyasi va prinsiplari asosida tuziladi. Ushbu prinsiplar o‘qituvchi hamda o‘quvchi tomonidan bajariladigan barcha ta’lim asoslari dars mazmunini metodlari va darslarning tuzilishidagi asosiy talablar va uning yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Musiqa madaniyati darslarining didaktik prinsiplari 5 turdan iborat:

1. Musiqa ta’limi va tarbiyasida sistemalilik, ilmiylik va davomilik prinsipi.
2. Darsda o‘quvchilarning onglilik va aktivlik prinsipi.
3. Musiqa madaniyati darslarida ko‘rgazmalik prinsipi.
4. O‘quv materiallarining bolalar bilim va malakalariga mosligi prinsipi.
5. Musiqa darslarida bilim va malakalarning mustaxkamligi prinsipi.

Ushbu prinsiplar asosan, o‘quv materiallarini qo‘llash, musiqa darsini mazmunini va rejasini tuzish jarayonida qo‘llanadi. Yuqoridagi, qayd etilgan umumdidaktik prinsiplar bir - biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, musiqa darsini davlat ta’lim standartiga muvofiq milliy xususiyatlarini hisobga olgan holda, uzluksizligini va uzviyligini asos qilib musiqa faoliyatini izchilligini ta’minlaydi.

Musiqa ta’limi va tarbiyasida tizimlilik, ilmiylik va davomiylik prinsipi: har bir darsda o‘zining tuzilishi va mazmuni bilan ilmiy asosida tashkil topishi lozim. Musiqa haqidagi bilimlar doirasi, musiqa ta’limi va tarbiyasining asosiy omilidir. Unda insoniyat yaratgan musiqaga oid qoidalar, xulosalar, umumlashgan musiqaviy tajribalar o‘z aksini topgan. Ularni o‘zlashtirish-musiqa amaliyoti yo‘lida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish demakdir. Ilmiylikni, sistemaliksiz amalga oshirish qiyin. Darsning barcha o‘quv faoliyati hamda keyingi darslarning o‘zaro mantiqiy bog‘lanishi sistemalik asosini tashkil etadi. Kuylash va tishlash uchun asarlarni bilim va malaka darajasiga ko‘tarib, soddadan murakkabga, noma’lumdan ma’lumga qarab o‘zlashtirib borish prinsiplari muayyan tartibga mos bo‘lib, tizimlilik demakdir. Darsning har bir faoliyati o‘z navbatida, har bir darsning mantiqiy davomi bo‘lib, pedagogik maqsadlari tobora amalga oshirishi davomiylik prinsipi demakdir. Davomiylik tamoyilini o‘rganilayotgan materiallar hajmi hamda qiyinlik darajasining shug‘ullanuvchilarning yoshi, individual xususiyatlari, tayyorgarlik darajasiga muvofiq bo‘lishi talabini anglatadi. Bu tamoyilni amalga oshirar ekan o‘qituvchi musiqiy asar, faoliyat turlari, savolni o‘rganish uchun zarur bo‘ladigan vaqtni aniqlaydi. U o‘quvchilarga tushinarli bo‘ladigan yangi tushuncha, musiqiy iboralar hajmini, o‘rganilayotgan faoliyat turlarini yoritish chuqurligini, amaliy ijro murakkabligini, o‘qitish metodlarini belgilaydi. Ilmiy bilimlarning tarixiy rivojlanishi qurshab turgan olam qonuniyatlarini kamroq tushunishdan yanada chuqurroq tushunishgacha ko‘tariladi. Ilmiy bilimlar ilmiylik xususiyatini yo‘qotmagan holda musiqa olamini har xil darajada

tushuntirib berishi mumkin. Shuning uchun ham o'quv dasturida o'rganilayotgan musiqa asarlari o'quvchilarning yoshiga, ulami rivojlanish darajasiga qarab ko'proq yoki kamroq teranlik bilan izoxlab berilishi mumkin. Masalan, davlat madhiyasi barcha sinflarda o'rganiladi. Bu asarning ilmiy ta'rifi yil sayin chuqurlashib boradi. Madhiya o'rgatilishining birinchi bosqichida yuzakichilikka yo'l qo'ymaslik kerak. Madhiya qoidaga ko'ra 2-sinf gacha o'quvchilarga eshittiriladi. 2-sinf dan so'ng esa ijro qilinadi.

Har bir dars singari musiqa darsi ham o'zining tuzulishi va mazmuni bilan ilmiy asosda tashkil topishi zarur. Musiqa haqidagi bilimlar doirasi musiqa ta'limi va tarbiyasida asosiy negizdir. Unda insoniyat yaratgan musiqaga oid qonun-qoidalar, xulosalar, umumlashma musiqaviy tajribalar tarzida o'z aksini topgan. Ularni o'zlashtirish musiqa amaliyoti yo'lida bilim va ko'nikmalar hosil etishi demakdir. Musiqa darslari jarayonida o'quv materiallarining bolalar bilim va tajribasiga mosligi, bolalar ovozing rivojlanishi qonuniyatlarini hisobga olish, nota qonuniyatlarini to'g'ri o'rgatish, asarlarni bolalarning idrok etish qobiliyatiga mos tahlil etish va boshqalar musiqa darsining ilmiylik tamoyilini tashkil qiladi. Bolalarda musiqiy didini shakllantirishda metodik va badiiy adabiyotlarning o'rni beqiyosdir. Musiqa asarlarini o'rganish va tinglash jarayonida bolalar bir qancha asarlarni eslab qolishlari, shu asarlar haqida to'g'ri tushuncha hosil qilishlari, hatto ularni yaxshi ko'rishlari bilan birga, musiqaning ta'sirchanlik vositalari haqida ma'lumot olishlari zarur. Bu ish jarayonida musiqa savodi musiqa tinglash bilan chambarchas bog'lab olib boriladi. Boshlang'ich sinflarda tinglab o'tilgan asarlar haqida o'qituvchining savollari va o'quvchilarning javoblari shaklida suhbat olib boriladi. O'quvchilar asosan asarning o'ziga xos xususiyatiga, uning tempi va dinamikasiga taalluqli savollarga javob qaytara bilishlari, marshni, raqs kuyini, xalq qo'shiqlarini ajrata bilishlari kerak.

Bir o'quv yili mobaynida o'quvchilar 10-12 atrofida musiqa asarlari bilan tanishishlari kerak. Har bir darsda 5-7 daqiqa atrofida musiqa tinglash o'tkaziladi. Sinflarda yuqorilab borgan sari musiqa tinglashni 8-12 daqiqagacha ko'tarish mumkin. Bu dastur bo'yicha biror chorakni chuqurroq o'rganish maqsadida tavsiya qilinadi. Bunday darslar chorak so'ngida o'tkaziladigan bo'lsa, ular topishmoq shaklidagi nazorat darslari bo'lishi mumkin. O'quvchilar esa asarning nomi, mualliflari, qaysi janrga taalluqli ekanligi haqida, asarning musiqiy tuzilishi, kompozitor asarda qanday ifoda vositalaridan foydalangani haqida bilganicha gapirib beradi. Beshinchi sinfdan dasturga xor, orkestr, simfoniya, libretto, uvertyra, musiqali drama va komediyadan parchalar, operalardan ariyalar, duetlar, raqs kuylari, maqomlar, klassik asarlar, folklor kuy va qo'shiqlar, chet el kompozitorlarining asarlari yettinchi sinfga qadar kiritilganki, bu asarlarini ijro etish ko'p vaqt talab etadi.

O'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining diqqatini tez o'zgaruvchanligini hisobga olib, asarni tinglashdan avval ularga musiqa necha qismdan iboratligini, dinamikaning

qanday rivojlanib borishini aniqlash, asosiy mavzu (kuy)ni eslab qolish kabi topshiriqlarni taklif qilishi mumkin. Darsda o‘qituvchining asarlarni to‘g‘ri va ifodali ijro etishlari ahamiyatlidir. Chorak mavzusidan kelib chiqib, asarning musiqaviy tuzilishi, xarakteri, ifoda vositalari, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi, sinf tarkibi jihatdan o‘rganib, quyidagi bosqichlarda o‘zlashtiriladi:

1. Asarni tinglashga bola diqqatini tortish, o‘qituvchining kirish so‘zi.
2. O‘qituvchi ijrosida yoki texnika vositasi orqali asarni tinglash.
3. Tinglangan asar haqida suhbat-tahlil.
4. Asarni to‘la va qayta tinglash, bolalar taassuroti va yakuniy suhbat.

O‘qituvchi darsda musiqa asarini ijro etishdan oldin bolalarni tinglashga tayyorlashi, ularning asarni mukammal anglab olishlariga, his etish va baho berishlariga yordam bermog‘i zarur. Buning uchun o‘qituvchi asarni birinchi marta ijro etishdan oldin qisqacha kirish suhbatini o‘tkazadi. Bundan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilarni musiqa tinglashga hissiy tayyorlashdir. Suhbatni suratlar, rangli rasmlar, sahna ko‘rinishlari va mashhur ijrochilarga oid foto suratlar bilan olib borish foydalidir. Kuylash va tinglash uchun asarlarni bolalar bilimi va malakalari, vokal va xor malakalari darajasiga xos tanlash hamda ularni oddiydan murakkabga va ma‘lumdan noma‘lumga qarab o‘zlashtirib borish tamoyili asosida tartibga solish tizimlilik demakdir. Pedagogik adabiyotlarda musiqa ta‘limi ko‘pincha estetik tarbiya vositasi sifatida ko‘rib chiqiladi. Biroq zamonaviy ilmiy qarashlar musiqa fanining quyidagi funktsiyalarini ajratib ko‘rsatadi:

1. **Estetik funktsiya** – go‘zallikni idrok etish va baholash qobiliyatini shakllantirish.
2. **Aksiologik funktsiya** – milliy va umuminsoniy qadriyatlarini anglashni ta‘minlash.
3. **Kommunikativ funktsiya** – jamoaviy ijro orqali ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish.
4. **Kreativ funktsiya** – ijodiy tafakkur va muqobil fikrlashni shakllantirish

Zamonaviy umumta‘lim maktablarida musiqa fanini o‘qitish quyidagi kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilishi lozim:

- **Madaniy kompetensiya** – milliy va jahon musiqa merosini anglash;
- **Ijodiy kompetensiya** – improvizatsiya va musiqiy tafakkur;
- **Ijtimoiy kompetensiya** – jamoaviy faoliyatda ishtirok etish;
- **Refleksiv kompetensiya** – musiqiy asarni tahlil qilish va baholash.

Mazkur model musiqa fanini boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan integratsiyalash imkonini beradi. Musiqa fanining umumta‘lim tizimidagi o‘rni ko‘pincha yetarlicha baholanmaydi. Amalda esa u shaxsning emotsional-intellektual uyg‘unligini ta‘minlovchi muhim omildir.

Musiqqa ta'limini rivojlantirish uchun: o'quv dasturlarini kompetensiyaviy model asosida takomillashtirish; milliy musiqqa merosini chuqur integratsiya qilish; o'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish, raqamli ta'lim resurslarini keng joriy etish zarur.

Xulosa . Xulosa o'rnida aytish mumkinki, musiqqa fani umumta'lim tizimida shunchaki yordamchi fan emas, balki barkamol avlodni shakllantiruvchi strategik ahamiyatga ega bo'lgan o'quv fanidir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, musiqqa fani umumta'lim maktablarida shaxs rivojlanishining estetik, aksiologik va kreativ komponentlarini shakllantirishda muhim pedagogik mexanizm hisoblanadi. Musiqqa darslari o'quvchilarda milliy o'zlikni anglash va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini uyg'otuvchi asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Musiqqa bilan shug'ullanish o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini charxlaydi va ularning aniq fanlarni o'zlashtirishdagi samaradorligini oshiradi. Bugungi axborotlashgan jamiyatda sifatli musiqqa ta'limi yoshlarda "ommaviy madaniyat"ning salbiy ta'sirlaridan himoyalovchi badiiy-didli filtrni shakllantiradi. Shunday qilib, umumta'lim maktablarida musiqqa darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar va milliy an'analar uyg'unligida tashkil etish — kelajakda jamiyatimizning madaniy-ma'rifiy darajasi yuksalishiga hamda ma'nan sog'lom shaxslar yetishib chiqishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sharipova G. "Musiqqa o'qitish metodikasi" (Darslik). — Toshkent: "Barkamol fayz media", 2017.
2. Hasanov A. "Maktabda musiqqa tarbiyasi" (O'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar). — Toshkent: "O'qituvchi", 2010.
3. O. Fayziyeva. "O'zbekiston maktablarida musiqqa nafosat tarbiyasini tashkil etish bo'yicha metodik qo'llanma". T.: "Navoiy azot" nashriyoti, 1992 y
4. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqqa madaniyati fani bo'yicha sinf dasturi. (1-7-sinflar)-T., 1998.
5. Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Musiqqa, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya.-T., 1999